

Mazkur to‘plamda Toshkent tibbiyot akademiyasining “Klinik laborator diagnostikada innovatsion texnologiyalardan foydalanish, muammolar va yechimlar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari kiritilgan.

To‘plamga kiritilgan materiallarning mazmuni va sifatiga muallif(lar) javobgar hisoblanadi.



Toshkent – 2023

Sayfutdinova Z.A. Bemorni umumiy tahlil uchun balg'am yig'ishga tayyorlash	383
Sayfutdinova Z.A. Najas olish qoidalari	385
Sayfutdinova Z.A. Ichak mikroflorasini o'rganish uchun najasni yig'ish qoidalari	386
Sayfutdinova Z.A., Valijonova M.S. Toksik gepatit etiopatogenezi to'g'risidagi talqin	388
Sayfutdinova Z.A. Laborator tekshirish uchun qonni tayyorlashning umumiy qoidalari	391
Sayfutdinova Z.A. Biologik materialni transportirovka qoidalari	392
Sayfutdinova Z.A., Xidoyatova M.D. Umumiy peshob tahlili normal ko'rsatkichlari	394
Sharofova Sh.N., Kurbonova Z.Ch., Baltayeva F.G. Covid-19 bilan kasallangan bemorlarda antikoagulyasion tizim holati	396
Sharofova Sh.N., Kurbonova Z.Ch. Covid-19 bilan kasallangan bemorlarda trombofiliya genlarini tekshirishning ahamiyati	398
Sharofova Sh.N., Kurbonova Z.Ch., Baltayeva F.G. Covid-19 bilan kasallangan bemorlarda qon ivish tizimidagi o'zgarishlar	400
Shodiyeva G.E., Kurbonova Z.Ch., Nuriddinova N.F. Virus etiologiyali jigar sirrozida gipersplenizm patogenetik mexanizmi	401
Shodiyeva G.E., Kurbonova Z.Ch., Nuriddinova N.F. Virus etiologiyali jigar sirrozida trombositopeniya patogenetik aspekti	403
Shodiyeva G.E., Kurbonova Z.Ch., Nuriddinova N.F. Virus etiologiyali jigar sirrozida klinik belgilar tavsifi	405
Shodiyeva G.E., Kurbonova Z.Ch., Nuriddinova N.F. Virus etiologiyali jigar sirrozida sitopenik sindrom tavsifi	407
Shodiyeva G.E. Alt va Ast tekshiruvlarining klinik ahamiyati	409
Shokirova F.J., Suleymanova D.N. Keksa yoshdagi ayollarda B ₁₂ vitamini ko'rsatkichlarini o'rganish	411
Shoxromboyev S.A., Ishanxodjayeva G.T., Ataniyazov M.K. Qon tomir etiologiyali demensiyada kognitiv buzilishlar va ularni korreksiya qilish	412
Sobirova D.S., Rakhimbaeva G.S., Kim I.G. Modern technologies for diagnostics of structural epilepsy in cerebrovascular pathology	413
Sobirova D.S., Raximbaeva G.S., Kim I.G. Serebro-vaskulyar	

LABORATOR TEKSHIRISH UCHUN QONNI TAYYORLASHNING UMUMIY QOIDALARI

Sayfutdinova Z.A.
Toshkent tibbiyot akademiyasi

Sifatli tahlil natijasini olish uchun materialni to'g'ri olish, saqlash va laboratoriyaga yetkazish, dastlabki ishlov berish katta ahamiyatga ega.

Tahlil uchun material olish venadan yoki barmoqdan qon olinadi.

Bilak venasidan qon olish keng tirqishli nina yordamida qon oqimi bilan olinishi lozim. Qon olishdagi eng ko'p xato antikoagulyantni noto'g'ri qo'llanilishidir.

Qon topshirish uchun bemorlarni tayyorlashning umumiy qoidalari:

1. Qon qat'iy ravishda och qorinda, dori vositalari qabul qilishdan oldin, rentgen, endoskopik va ultratovush tekshiruvlaridan oldin olinishi shart.

2. Agar dori preparati bilan davolash nazorati o'tkazilmasa, olinadigan natijalarga ta'sir ko'rsatadigan dori preparatlari oldindan bekor etilishi lozim.

3. Qonda konsentratsiyasi siklik o'zgaradigan moddalarning miqdori fiziologik sikllarga mos ravishda o'lchanishi kerak. Masalan, follikul stimullovchi gormon (FSG) va lyuteinlovchi gormon (LG) konsentratsiyasi menstrual siklning 5-7 kuni o'lchanadi.

Ishlatiladigan antikoagulyantlar va konservantlar.

1. EDTAli probirkalar. Qon umumiy klinik tekshiruvi va glikozirlangan gemoglobinni tekshirish uchun ishlatiladi.

2. Natriy sitratli probirkalar. Gemostaz tizimini tekshirish uchun ishlatiladi.

3. Natriy ftoridli probirkalar. Glyukozani aniqlash uchun ishlatiladi. Boshqa bioximik parametrlarni ham aniqlash mumkin.

4. Geparinli probirkalar. Immunogramma uchun ishlatiladi.

Barmoqdan qon olish texnikasi. Albatta rezina qo'lqoplar kiyiladi, 70° li spirt bilan ishlov qilinadi. Qon 4 chi nomsiz barmoqning periferik qismidan, yangi tug'ilgan chaqaloqlarda quloq suprasi yoki tovondan olinadi. Qon olinadigan joyini 70° li spirtli paxta yordamida ishlov qilinadi. Bir martalik skarifikator yordamida teshib olinadi. Birinchi tomchini quruq steril paxta yordamida artib tashlanadi. Qonni buyum oynachasiga va probirkaga solinadi. Qon olingan barmoqqa 70° li steril paxta tamponni qo'yiladi.

Qon olish uchun bir martalik ishlatishga mo'ljallangan shpritslardan yoki vakuumli qon olish sistemalari — Vacuette, Vacutainerdan foydalaniladi. Shprits bevosita ishlatishdan oldin ochiladi. 5 ml li steril probirkaga 2-2,5 ml venoz qon olinadi. Probirkaga olingan qon muzlatkichda +4+6°C da 24 soatgacha saqlanishi mumkin. Probirka muzlatilmaydi.

Venadan qon olish tartibi. Bemorning qon olish uchun qulay va mos holatda bo'lishini ta'minlash - bemorning qo'li yelkadan bilagacha to'g'ri chiziq hosil qiladigan tarzda uzaytirilishi kerak. Venopunksiya joyini tanlab, bemordan tomirlar ko'proq ko'rinishi uchun musht qilishni so'raladi. Venopunksiya uchun mo'ljallangan joyini dezinfeksiyalovchi vosita bilan tozalab, terisi quritiladi. Dezinfeksiyalovchi modda bilan ishlov berilgan teri paypaslanmaydi. Jgutni qon

olinadigan joydan taxminan 10-12 sm yuqoriga bog'lanadi. Himoya qopqog'ini ignadan olib tashlanadi. Vena punksiyasi bajariladi va tomir harakat qilmasligi uchun terini biroz cho'ziladi; tomir devorini igna bilan 15-30 daraja burchak ostida teshiladi, bunda igna teshigi yuqoriga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Probirkani shunday tutiladiki, qon probirka devori bo'ylab oqishi kerak. To'ldirilgandan so'ng, vakutaynerlarni 4-8 aralashtiriladi (koagulyatsion probirka - 4 marta, qolganlari - 8 marta) qonni aralashtiriladi. Harakat keskin bo'lmasligi kerak. Qon olingan sohaga spirtli paxta qoyiladi va ignani tomirdan olib tashlanadi. 3-5 daqiqa davomida qon olingan vena joyini spirtli paxta bilan bosib turiladi, bemorning qo'lini tekislash so'raladi.

Адабиётлар.

1. Курбонова З.Ч., Сайфутдинова З.А. Лаборатор текширувлар учун материал олиш қоидалари: ўқув қўлланма. Тошкент, 2023.
2. Курбонова З.Ч., Сайфутдинова З.А. Лаборатор текширувлар учун материал олиш қоидалари: электрон ўқув қўлланма. Тошкент, 2023.
3. Курбонова З.Ч., Сайфутдинова З.А. Клиник лаборатор таҳлиллар учун биологик материал олиш қоидалари: ўқув - услубий қўлланма. Тошкент, 2023.
4. Kurbonova Z.Ch., Sayfutdinova Z.A. Laborator tekshirish uchun material olish qoidalar: o'quv qo'llanma. Toshkent, 2023.
5. Kurbonova Z.Ch., Sayfutdinova Z.A. Laborator tekshirish uchun material olish qoidalar: elektron o'quv qo'llanma. Toshkent, 2023.
6. Kurbonova Z.Ch., Babadjanova Sh.A., Sayfutdinova Z.A. Laboratory work: study guide. Tashkent, 2023
7. Kurbonova Z.Ch., Babadjanova Sh.A., Sayfutdinova Z.A. Laboratory work: electronic study guides. Tashkent, 2023
8. Kurbonova Z.Ch., Babadjanova Sh.A., Sayfutdinova Z.A. Introduction to cytological diagnostics: study guide. Tashkent, 2023.
9. Kurbonova Z.Ch., Sayfutdinova Z.A. Klinik laborator tahlillar uchun biologik material olish qoidalar: o'quv - uslubiy qo'llanma. Toshkent, 2023.
10. Kurbonova Z.Ch., Sayfutdinova Z.A. Peshobning klinik laborator tahlili: o'quv - uslubiy qo'llanma. Toshkent, 2022. 49 b.

BIOLOGIK MATERIALNI TRANSPORTIROVKA QOIDALARI

Sayfutdinova Z. A.

Toshkent tibbiyot akademiyasi

Olingan biologik material belgilanishi kerak. Ilova qilingan hujjat-varag'ida jinsi, familiyasi, ismi, otasining ismi, to'liq tug'ilgan sanasi, taxmin qilingan tashxis yoki tekshiruv uchun ko'rsatmalar, namuna olingan sana, material jo'natayotgan muassasa, shifokorning familiyasi ko'rsatilishi kerak. Agar kerak bo'lsa, qo'shimcha ma'lumotlar ko'rsatiladi

Materialni tashish uchun idishlar muhrlanishni, sterillikni, namunalarning steril holda ta'minlashi kerak, shuningdek ochilganda aerosol hosil bo'lishini oldini olishi kerak.